# INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Xalikova Nilufar Mirkadirovna,**
*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,*
*“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi*
*nilufarhalikova957@gmail.com*
*+998 95 171 61 16*

**Annotatsiya:** *Maqolada innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari tinglovchilarining so‘rovnoma javoblari asosida tahlil qilinadi. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Sirdaryo va Samarqand viloyatlari pedagogik mahorat markazlarida 295 nafar tinglovchi ishtirokida 38 ta savoldan iborat so‘rov o‘tkazildi. Javoblarda interaktiv metodlarni 51,5 foiz, konstruktiv yondashuvlarni 26,8 foiz tinglovchi qayd etgan; resurslar orasida darslik va qo‘llanmalar (66,8 foiz) yetakchi, onlayn manbalar esa 45,8 foizni tashkil etgan. Ishchi dasturni ongli ishlab chiqishga oid savolda “ha” javobi (71,9 foiz) boshqa metodik savollarga nisbatan past bo‘ldi. Natijalar malaka oshirish mazmunida amaliy topshiriqlar, darsni loyihalash va refleksiv tahlil ulushini oshirish bo‘yicha takliflar uchun asos bo‘ldi. Ma’lumotlar o‘zini baholashga tayanganligi sababli ular kompetentlikning bevosita o‘lchovi sifatida talqin qilinmaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *kasbiy kompetentlik, innovatsion ta’lim muhiti, malaka oshirish, metodik tayyorgarlik, raqamli resurslar, pedagogik refleksiya, so‘rovnoma.*

**Развитие профессиональной компетентности учителей в инновационной образовательной среде**

**Халикова Нилуфар Миркадировна,**
*Старший преподаватель кафедры “Методика точных и естественных наук” Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони*

**Аннотация:** *В статье на основе ответов слушателей курсов повышения квалификации анализируется развитие профессиональной компетентности учителей в инновационной образовательной среде. В Национальном институте педагогического мастерства имени А.Авлони и центрах педагогического мастерства Сырдарьинской и Самаркандской областей проведён опрос 295 слушателей по анкете из 38 вопросов. Интерактивные методы указали 51,5 % респондентов, конструктивные подходы – 26,8 %; среди ресурсов лидируют учебники и пособия (66,8 %), онлайн-источники отметили 45,8 %. Ответ “да” на вопрос об осознанной разработке рабочей программы (71,9 %) встречается реже, чем в других вопросах о методической деятельности. Результаты положены в основу предложений по увеличению доли практических заданий, проектирования уроков и рефлексивного анализа в программах повышения квалификации. Поскольку данные основаны на самооценке, они не рассматриваются как прямое измерение компетентности.*

**Ключевые слова:** *профессиональная компетентность, инновационная образовательная среда, повышение квалификации, методическая*

*подготовка, цифровые ресурсы, педагогическая рефлексия, анкетирование.*

**Developing teachers' professional competence in an innovative learning environment**

**Xalikova Nilufar Mirkadirovna,**
*Senior Lecturer of the Department of "Methodology of Exact and Natural Sciences" A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills*

**Abstract:** *The article examines the development of teachers' professional competence in an innovative learning environment on the basis of in-service training participants' questionnaire responses. A 38-item survey was completed by 295 participants at the A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills and the pedagogical skills centres of the Syrdarya and Samarkand regions. Interactive methods were reported by 51.5% and constructivist approaches by 26.8% of respondents; textbooks and manuals were the most frequently reported resources (66.8%), followed by online sources (45.8%). The share of "yes" answers on consciously developing a working programme (71.9%) was lower than on the other methodological items. The findings underpin proposals for increasing the share of practice-oriented tasks, lesson design and reflective analysis in in-service training. As the data are self-reported, they are not treated as a direct measure of observed teaching competence.*

**Keywords:** *professional competence, innovative learning environment, in-service teacher training, methodological preparation, digital resources, teacher reflection, questionnaire.*

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masala xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [1], 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [2] hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda [3] ham e'tiborga olingan. Biroq, me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshishi, oxir-oqibat, o'qituvchining sinfdagi kundalik pedagogik qarorlariga bog'liq.

Innovatsion ta'lim muhiti o'qituvchidan yangi texnik vositalardan foydalanish bilangina cheklanmaydigan kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish, dars maqsadini asosli belgilash, mos metod va resurs tanlash hamda jarayondagi qiyinchiliklarga qarab o'z faoliyatini o'zgartira olish ham pedagogik kompetentlikning amaliy ko'rinishlaridir. OECDning "Innovative Learning Environments" tadqiqotida ta'lim muhitini yangilash o'quv jarayonining pedagogik asosini qayta ko'rib chiqish, hamkorlikni kengaytirish va doimiy tahlilga tayangan holda takomillashib borish bilan izohlanadi [13]. Shu bois innovatsion muhitni faqat elektron platformalar yoki texnik jihozlar mavjudligi orqali tavsiflash yetarli emas o'qituvchining pedagogik qarorlari ham e'tiborga olinishi kerak.

Malaka oshirish jarayonining natijasini tinglovchiga yetkazilgan axborot hajmi bilan emas, o'qitish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan ko'nikmalar bilan bog'lab baholash lozim. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy rivojlanishning samarali shartlari yetarlicha izohlangan bo'lsa-da, malaka oshirish tinglovchilarining o'z darslarida qaysi metod va resurslardan foydalanishini ko'rsatadigan mahalliy ma'lumotlar muayyan kurs mazmunini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi 295 nafar respondentlarning so'rovnoma javoblarini tahlil qilish orqali ularning kasbiy faoliyatiga doir ayrim ehtiyojlarni aniqlash va malaka oshirish mashg'ulotlari mazmuniga tegishli amaliy takliflarni asoslashdir. Maqsadga erishish uchun

quyidagi vazifalar belgilandi: kasbiy rivojlanish va kompetentlikni baholashga doir yondashuvlarni tahlil qilish; respondentlar qayd etgan o'qitish metodlari va ta'lim resurslarini aniqlash; metodik faoliyatga oid javoblarni o'zaro solishtirish; kurs mazmunini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning muammosi tinglovchilar o'z amaliyotida qaysi metod va resurslarni ko'proq qayd etadi hamda metodik faoliyatning qaysi jihatlarida amaliy qo'llab-quvvatlash ko'proq talab etilishini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda o'rganilgan hududlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari tinglovchilarining o'z amaliyoti haqidagi bildirishlari asosida kurs mazmuniga yo'naltirilgan takliflar olindi hamda natijalar kompetentlikning bevosita o'lchovi emas, kasbiy ehtiyojlarni aniqlash uchun dastlabki ma'lumot sifatida tahlil etildi.

Kompetentlik tushunchasi pedagogika va psixologiyada turlicha talqin qilinadi. I.A.Zimnyaya kompetensiyalarni ta'lim natijasiga yo'naltirilgan kompetentlikli yondashuvning asosi sifatida ko'rib chiqadi [5]. A.V.Xutorskoy esa kompetensiya (o'zaro bog'liq sifatlar majmui) va kompetentlik (shu kompetensiyaga egalik) tushunchalarini farqlaydi [7]. A.K.Markova kasbiy kompetentlikni mehnat subyektining professionalizmi tarkibida tahlil qiladi [6]. O'zbekiston pedagogikasida o'qituvchining kasbiy mahorati pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq holda yoritilgan [4]. Bu qarashlar kasbiy kompetentlikni bilimlar yig'indisi bilan emas, ularni amaliy vaziyatda qo'llash qobiliyati bilan bog'lab tushunish zarurligini ko'rsatadi.

O'qituvchi bilimini Lee S.Shulman fan mazmunini o'qitish jarayoniga moslashtirish bilimi, ya'ni pedagogik kontent bilim sifatida talqin qilgan [15]. Keyinchalik P.Mishra va M.J.Koehler texnologiyadan foydalanish samaradorligi texnologik, pedagogik va fan bilimlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatuvchi TPACK modelini taklif etdi [12]. UNESCOning o'qituvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalari doirasi ham raqamli vositalardan foydalanishni o'quv dasturi, baholash, pedagogik yondashuv va o'qituvchining kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog'laydi [16]. Bu yondashuvlar o'qituvchining raqamli tayyorgarligini alohida texnik malaka sifatida emas, uning umumiy kasbiy faoliyatining bir qismi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Samarali malaka oshirish dasturlariga bag'ishlangan tadqiqotlar sharhida Linda Darling-Hammond, M.E.Hyler va M.Gardner fan mazmuniga yo'naltirilganlik, faol o'rganish, hamkorlik, amaliy namuna, mentorlik, fikr-mulohaza va refleksiya hamda davomiylik kabi xususiyatlarni ajratadi [8]. M.M.Kennedy dastur xususiyatlarini sanab o'tishdan ko'ra, dastur o'qituvchining amaliy faoliyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish muhimligini ta'kidlaydi [11]. T.R.Guskey fikricha, o'qituvchi qarashlari va amaliyotidagi o'zgarishlar ko'pincha yangi usul o'quvchilar natijasiga ijobiy ta'sir qilganini ko'rgandan so'ng yuz beradi [10]. Demak, o'qituvchi yangi metodni tinglovchi sifatida o'rganishi bilan birga uni darsga moslashtirib, natijasini tahlil qilish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy rivojlanish natijalarini baholashda o'lchov vositalarining imkoniyatlari ham hisobga olinadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning "TALIS 2018" tadqiqoti o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ularning o'z tayyorgarligini baholashi va amaliy faoliyati orasidagi bog'lanishlarni xalqaro miqyosda o'rganadi [14]. Bunday tadqiqotlar malaka oshirish ehtiyojlarini aniqlashda o'qituvchilarning fikrini bilish zarurligini ko'rsatadi. Biroq, o'zini baholashga asoslangan javoblar amaliy kompetentlikni bevosita o'lchovchi dalil sifatida qabul qilinmasligi

lozim. L.M.Desimone ham malaka oshirishning ta’sirini o‘rganishda tushunchalarni aniq belgilash va o‘lchov vositalarini takomillashtirish zarurligini asoslagan [9].

Tadqiqotning holatni aniqlash bosqichi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi va Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etildi. So‘rovnomada Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining jami 295 nafar tinglovchisi ishtirok etdi.

So‘rovnoma 38 ta savoldan iborat bo‘lib, olti yo‘nalishga ajratilgan (1-jadval). Shaxsiy sifatlar bo‘yicha savollar mas’uliyat, tashabbuskorlik va o‘z ustida ishlashga munosabatni; maqsadni belgilashga doir savollar dars faoliyatini rejalashtirishni; motivatsiya yo‘nalishi o‘quvchini jalb etish usullarini qamrab oladi. Axborot kompetensiyasiga oid savollar darsda resurs va texnologiya tanlash bilan, qolgan ikki yo‘nalish esa o‘quv dasturi va o‘quv-metodik hujjatlar bilan ishlash, pedagogik qarorlar qabul qilish hamda darsni tashkil etish bilan bog‘liq. Yo‘nalishlar javoblarni tartibga solish uchun qo‘llandi va alohida diagnostik shkala sifatida talqin qilinmaydi.

**O‘qitish metodlari.** Dastlab o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirish uchun tanlanadigan metodlar tahlil qilindi (1-rasm). Tinglovchilarning 33,2 foizi an’anaviy metodlarni, 37,6 foizi faol o‘qitish metodlarini, 51,5 foizi interaktiv metodlarni qayd etgan; zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish 48,5 foizni, konstruktiv o‘qitish yondashuvlaridan foydalanish esa 26,8 foizni tashkil etdi. Ko‘rsatkichlarning turlicha bo‘lishi pedagoglar qo‘llaydigan usullar bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Interaktiv metodlarni qayd etganlar ulushi boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo‘lsa-da, bundan aynan shu metodlar darsda ko‘proq yoki sifatliroq qo‘llanayotgani kelib chiqmaydi, o‘qituvchining bildirgan tanlovini aks ettiradi, chunki biz tomondan metoddan foydalanish muntazamligi va samaradorligi o‘rganilmagan. Metod toifalari bir-birini to‘liq istisno qilmasligini ham hisobga olish kerak (masalan, zamonaviy usullar tarkibiga individual yondashuv va o‘z-o‘zini o‘qitish kiritilgan). Konstruktiv

*1-jadval.*


**So‘rovnoma savollarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti**

| № | So‘rovnoma yo‘nalishi | Savollar | Soni |
|---|---|---|---|
| 1 | Shaxsiy sifatlar | 1-8 | 8 |
| 2 | Pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash | 9-10 | 2 |
| 3 | O‘quv faoliyati uchun motivatsiya | 11-13 | 3 |
| 4 | Axborot kompetensiyasi | 14-23 | 10 |
| 5 | Pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish | 24-29 | 6 |
| 6 | O‘quv faoliyatini tashkil etish | 30-38 | 9 |

Natijalar javob ulushlarini (foizda) taqqoslash va mazmunan sharhlash yo‘li bilan tahlil qilindi. 1- va 2-rasmlarda javoblar yig‘indisi 100 foizdan oshishi bu savollarda bir nechta variant belgilanganini bildiradi. Respondent javobla-

ri dars jarayonining bevosita kuzatuvi yoki o‘quvchilar natijalarini o‘lchash bilan tasdiqlanmagan; shu bois talqinlar tinglovchilarning o‘z amaliyoti haqidagi bildirishlarini aks ettiradi.


yondashuvni qayd etganlar ulushining nisbatan pastligi (26,8 foiz) loyiha, hamkorlik va refleksiyaga asoslangan ishlarni kurs mashg‘ulotlarida alohida ko‘rib chiqish zarurligi haqidagi farazni ilgari surishga imkon beradi.




**1-rasm. Tinglovchilar javoblarida qayd etilgan o'qitish metodlari ulushi, %**

**Ta'lim resurslari.** Dars jarayonida foydalaniladigan resurslar bo'yicha darslik va qo'llanmalar 66,8 foiz, ko'rgazmali vositalar 59,7 foiz, onlayn manbalar 45,8 foiz javobda qayd etilgan; "dars jarayonida asosan darslikdagi ma'lumotlardan foydalanaman" variantini 26,4 foiz tinglovchi belgilagan (2-rasm). Darslikdan foydalanish va asosan darslikka tayanish turli savol variantlari ekanini hisobga olish lozim.

**Metodik faoliyat.** Metodik faoliyatga oid savollar o'quv-metodik majmualar bilan tanish-




**2-rasm. Dars jarayonida foydalaniladigan ta'lim resurslari bo'yicha javoblar, %**

Natijalar resurslardan foydalanish aralash xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi: bosma materiallar va ko'rgazmali vositalar saqlanib qolgan holda onlayn manbalar ham qo'llanmoqda. Bu holatni "raqamli texnologiyalardan foydalanish past" degan keskin baho bilan izohlash o'rinli emas, chunki ma'lumotlarda dars mazmuni, fan yo'nalishi va resurs tanlash uchun mavjud sharoitlar aks etmagan. TPACK yondashuvi [12] nuqtayi nazaridan ham asosiy e'tiborni vositalar sonini ko'paytirishdan ko'ra, ularni o'quv maqsadi, fan mazmuni va o'quvchilar ehtiyojiga mos tanlashga qaratish maqsadga muvofiq.

lik, ishchi dasturni ongli ishlab chiqish, mustaqil axborot izlash va pedagogik faoliyatni loyihalashda individual xususiyatlarni hisobga olishni qamrab oldi (2-jadval). "Ha" javobi mos ravishda 83,7; 71,9; 86,8 va 83,1 foizni, "qisman" javobi esa 15,3; 22,7; 12,2 va 15,6 foizni tashkil etdi.

*2-jadval.*

**Metodik faoliyatga oid savollar bo‘yicha javoblar taqsimoti, %**

| Savol mazmuni | Ha | Qisman | Yo‘q |
|---|---|---|---|
| O‘quv-metodik majmualar bilan tanishlik | 83,7 | 15,3 | 1,0 |
| Ishchi dasturni ongli ishlab chiqish | 71,9 | 22,7 | 5,4 |
| Mustaqil axborot izlash qobiliyati | 86,8 | 12,2 | 1,0 |
| Faoliyatni loyihalashda individual xususiyatlarni hisobga olish | 83,1 | 15,6 | 1,3 |

Aksariyat respondentlar o‘z imkoniyatlarini ijobiy baholagan. Biroq, ishchi dasturni ongli ravishda ishlab chiqish haqidagi savolda “ha” javobi (71,9 foiz) qolgan uch ko‘rsatkichdan 11,2–14,9 punktga past, “qisman” javobi (22,7 foiz) esa yuqori. Demak, metodik hujjatni bilish va uni mustaqil loyihalash bir xil tayyorgarlikni talab qilmasligi mumkin. Bu farqni aniqlashtirish uchun tinglovchilarga amaliy topshiriq ishchi dastur bo‘lagi, dars ishlanmasi yoki baholash mezonini yaratish vazifasini berish va natijani oldindan ishlab chiqilgan mezonlar bilan tekshirish zarur.

Foiz ko‘rsatkichlari pedagoglarning umumiy kasbiy kompetentligi bo‘yicha “yuqori”, “o‘rta” yoki “past” darajalarni bevosita belgilab bermaydi: bunday darajalarni ajratish uchun savollarni ballash mezoni, natijalarni birlashtirish tartibi va diagnostik vosita ishonchliligi ko‘rsatilishi kerak. Mavjud ma’lumotlarning imkoniyati, birinchi navbatda, qaysi yo‘nalishlarda amaliy tekshiruv va metodik qo‘llab-quvvatlash foydali bo‘lishini belgilash bilan cheklanadi.

Olingan javoblar uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida metodik tayyorgarlikni alohida mavzular yig‘indisi sifatida emas, darsni loyihalashning yaxlit jarayoni sifatida tashkil etish masalasini ko‘taradi. Masalan, interaktiv metodning nomini bilish va uni aniq sinf sharoitiga mos tanlash o‘rtasida farq mavjud. Tinglovchi metodni qo‘llash maqsadini tushuntira olishi, mos resurs tayyorlashi hamda dars yakunida o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilishi zarur. Bu fikr samarali dasturlarning amaliy namuna, fikr-mulohaza va refleksiyaga tayanishi haqidagi xulosalar [8] hamda o‘qituvchi o‘zgarishida amaliyot natijasini ko‘rishning o‘rni haqidagi qarashlar [10] bilan mos keladi. Shu jihatdan mashg‘ulotlar mazmunini pedagogik vaziyat va amaliy topshiriqlar bilan boyitish maqsadga muvofiq. Xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlangan faol o‘rganish, hamkorlik va refleksiya tamoyillari mazkur so‘rovnomaga mexanik ko‘chirilmadi; ular natijalarni izohlash uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot cheklovlari.** Birinchidan, so‘rovnoma ma’lumotlari o‘zini baholashga tayanadi va amaliyotdagi o‘zgarishlar yoki kursning sababiy samaradorligini mustaqil isbotlamaydi [9, 14]. Ikkinchidan, tanlanma statistik reprezentativlikka da’vo qilmaydi: natijalarni faqat mazkur so‘rovda ishtirok etgan tinglovchilar doirasida talqin qilish o‘rinli. Uchinchidan, tahlil alohida savollar bo‘yicha javob ulushlari bilan cheklangan va umumiy kompetentlik darajasini ajratmaydi. Keyingi bosqichda dars ishlanmalari ekspertizasi, kuzatuv, kursdan oldingi va keyingi topshiriqlar hamda tinglovchilar bilan suhbatdan foydalanish mumkin.

O‘rganilgan hududlarning 295 nafar tinglovchisi ishtirokidagi so‘rovnoma kas-

biy rivojlanish ehtiyojlarini muhokama qilish uchun dastlabki ma'lumot berdi. O'qitish metodlari bo'yicha javoblarda interaktiv metodlar 51,5 foiz, konstruktiv yondashuvlar 26,8 foiz sifatida qayd etilgan; resurslardan foydalanishda darslik va qo'llanmalar 66,8 foiz, onlayn manbalar 45,8 foiz ulushga ega. Bu ko'rsatkichlar biror yondashuvning mutlaq ustunligini emas, tinglovchilar bildirgan amaliyotning xilma-xilligini ifodalaydi.

Metodik faoliyatga oid savollarda ishchi dastur ishlab chiqish bo'yicha "ha" javoblari boshqa uch yo'nalishga nisbatan kamroq qayd etilgan. Bu farq malaka oshirish mashg'ulotlarida hujjatlar bilan amaliy ishlash, darsni rejalashtirish va o'z qarorini asoslashga qaratilgan topshiriqlarni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Natijalar respondentlarning o'z javoblariga tayanganligi sababli amaliy mahoratning yakuniy o'lchovi yoki kurslar samaradorligining isboti sifatida talqin qilinmaydi.

Olingan natijalar asosida quyidagilar tavsiya etiladi:

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida dars maqsadini belgilash, mos metodni tanlash va kutilgan natijani baholashni birlashtiruvchi amaliy topshiriqlar ulushini oshirish; tinglovchi yakunda o'zi ishlab chiqqan dars loyihasini taqdim etib, asoslab berishi;

ishchi dastur va o'quv-metodik hujjatlar namunalari bilan ishlash, mustaqil loyiha yaratish hamda ekspert mulohazasidan so'ng uni qayta ishlash bosqichlarini kurs mazmuniga kiritish;

raqamli va bosma ta'lim resurslarini o'quv maqsadi, fan mazmuni, o'quvchi ehtiyojlari hamda mavjud sharoitlar asosida tanlashga qaratilgan vaziyatli topshiriqlar ishlab chiqish;

tinglovchilarning o'qitish usullari haqidagi qarashlarini amaliy dars fragmentlari, o'zaro kuzatuv va refleksiv muhokamalar bilan bog'lash; bunda metod nomidan ko'ra uning pedagogik maqsadga muvofiqligini baholash;

keyingi tadqiqotlarda so'rovnoma blankasi, tanlanma tuzilishi, baholash mezonlari va tahlil tartibini ochiq bayon etish hamda o'zini baholash ma'lumotlarini dars ishlanmalari ekspertizasi yoki kuzatuv natijalari bilan qiyoslash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.

4. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Moliya, 2006.

5. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

6. Маркова А. К. Психология профессионализма. М.: Знание, 1996.

7. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58–64.

8. Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. (2017). Effective Teacher Professional Development. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute. https://learningpolicyinstitute.org/product/effective-teacher-professional-development-report.

9. Desimone L.M. (2009). Improving impact studies of teachers' professional development: Toward better conceptualizations and measures. Educational Researcher, 38(3), 181–199. https://doi.org/10.3102/0013189X08331140.

10. Guskey T. R. (2002). Professional development and teacher change. Teachers and Teaching, 8(3), 381–391. https://doi.org/10.1080/135406002100000512.

11. Kennedy M. M. (2016). How does professional development improve teaching? Review of Educational Research, 86(4), 945–980. https://doi.org/10.3102/0034654315626800.

12. Mishra P., Koehler M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054. https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.

13. OECD. (2013). Innovative Learning Environments. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264203488-en.

14. OECD. (2019). TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/1d0bc92a-en.

15. Shulman L.S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4–14. https://doi.org/10.3102/0013189X015002004.

16. UNESCO. (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/articles/unesco-ict-competency-framework-teachers.